va bu transport oqimini kuchayishiga,xizmatlarga bo‘lgan talabni oshishiga olib keladi. Hamda aholi bandligini ta’minlash uchun ham yordam bermoqda.

Qo‘qon shahrida tabiiy ko‘payish ham yuqori va uni yillar mobaynida o‘sib borayotganini ko‘rdik. Bunga shahrdagi yoshlar ulushining kattagi,yosh oilalar ko‘pligi,sog‘liqni saqlash tizimi takomillashganligi, ona va bolalarga,qariyalarga mamlakat tomonidan e’tiborni kuchayganligini ko‘rsatadi. Qo‘qon shahrining savdo markazi sifatidagi mavqei,aholi zichligi,iqtisodiy faolligi uning tabiiy ko‘payishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.Shu sababli,Qo‘qon Farg‘ona vodiysidagi demografik jihatdan tez rivojlanayotgan shaharlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q.X. Demografiya: [O‘quv qo‘llanma]. – Toshkent: Noshir, 2011. – 296 b.
2. Gadoyev K., Berdiyeva S. O‘zbek geografiya fani fidoyilari. – Toshkent, 2015.
3. Bo‘riyeva M. O‘zbekistonda oila demografiyasi. – Toshkent: Universitet, 1997. – 157 b.
4. Qayumov, A.A., Yakubov O‘.Sh., Abdullayev A.G. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. – 160 b.
5. Asanov R.G. Aholi geografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – 248 b.
6. Soliyev A.S., Jumaxanov Sh.Z., Toshpo‘latov A.M. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Darslik]. – Namangan: “Mashrab”, 2024. – 408 b.
7. Тожиева З.Н. Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари // г.ф.д. (DSc) илмий дар. олиш у-н ёз. дисс. автореферати. – Тошкент, 2017. –76 б.
8. Караханов М.К. Подготовка и использование квалифицированных кадров рабочих и специалистов в Узбекистане в послевоенный период: автореферат дис. … канд. экон. наук. – Ташкент, 1958. – 17 с. URL:https://search.rsl.ru/ru/record/01006293471
9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Farg‘ona viloyati hududiy statistika boshqarmasi. URL: https://farstat.uz
10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. URL:https://stat.uz

FARG‘ONA VODIYSI YIRIK SHAHARLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH DARAJASINI BAHOLASH

Ne’matova Madinabonu Abdusattor qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
madinabonunematova17@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysining yirik shaharlari – Namangan, Andijon, Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon misolida mehnat resurslaridan foydalanish darajasining hududiy tarkibi iqtisodiy geografik nuqtai nazardan o‘rganilgan. Mehnat yoshidagi aholining ulushi, bandlik va ishsizlik darajasi foiz ko‘rsatkichlarni ballga o‘tkazish hamda integral indeks ishlab chiqilib, shaharlarning mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi bo‘yicha tahlil qilingan. Shuningdek, olingan natijalar shaharlarning mehnat bozori ko‘rsatkichlari va shahar qulayligi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Ushbu tadqiqot shaharlarda demografik o‘sish bilan mehnat bozori o‘rtasidagi muvofiqlik darajasini aniqlashga hamda shaharlarning umumiy qulaylik indeksini baholashda muhim ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar*: mehnat resurslari, bandlik, ishsizlik, indegral indeks, subindikator, qulaylik, baholash.*

Kirish. Mehnat resurslaridan oqilona foydalanish har qanday hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aholi zichligi yuqori bo‘lgan hududlarda bu masala ahamiyatli, chunki bunday sharoitda mehnatga layoqatli aholining tabiiy o‘sishi ish o‘rinlariga bo‘lgan talabni doimiy ravishda oshirib boradi. Farg‘ona vodiysi – O‘zbekistonda aynan shunday hudud bo‘lib, uning tarkibiga kiruvchi Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlari mamlakatda aholi zichligi bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Bunday demografik yuklama sharoitida mehnat resurslaridan foydalanish

darajasini ilmiy asoslangan usullar bilan baholash va shaharlar o‘rtasidagi hududiy tafovutlarni aniqlash muhim amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyotda hududlarning mehnat bozori holatini baholashda Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) [3] tomonidan ishlab chiqilgan statistik yondashuvlar va ularga asoslangan integral indekslar keng qo‘llaniladi. Bunday indekslar bir nechta ko‘rsatkichni yagona o‘lchamga keltirib, turli mamlakat va hududlarni bir xil metodologik asosda solishtirish hamda mehnat bozoridagi tafovutlarni obyektiv ko‘rsatish imkonini beradi. O‘zbekistonda esa, xususan Farg‘ona vodiysi yirik shaharlari misolida, mehnat resurslaridan foydalanish darajasini shunday usullar bilan baholash amaliyoti ko‘p qo‘llanilmagan.

Mavjud tadqiqotlar, jumladan R.B. Qodirov [15] va Z.A. Temirov [23] tadqiqot ishlarida vodiy viloyatlari mehnat resurslarining demografik shakllanishi, hududiy joylashuvi va tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishini asosan viloyatlar kesimida va tavsiflovchi statistik tahlil asosida yoritgan. Ammo yirik shaharlar mehnat resurslarining miqdoriy ko‘rsatkichlarini shaharlarning qulaylik darajasini aniqlovchi indikator sifatida yagona integral indeksga jamlash va shu asosda shaharlarni o‘zaro qiyoslash tadqiqot predmeti bo‘lmagan. Mazkur bo‘shliq ushbu ishning ilmiy yangiligini belgilaydi: Namangan, Andijon, Farg‘ona, Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlari uchun mehnat resurslaridan foydalanish ilk bor yagona integral ko ‘rsatkich asosida baholanadi.

Tadqiqotning maqsadi – Farg‘ona vodiysining yirik shaharlari (Namangan, Andijon, Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon) misolida mehnat resurslaridan foydalanish darajasini integral indeks asosida baholash va shaharlar o‘rtasidagi hududiy tafovutlarni aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- tadqiqot obyekti bo‘lgan shaharlarning mehnat resurslari, bandlik va ishsizlik darajasiga oid statistik ma’lumotlarni tizimlashtirish;
- subindikatorlar ma’lumotlarini birlashtiruvchi integral indeksni hisoblab chiqish;
- shaharlarni integral indeks qiymati bo‘yicha qiyosiy tartiblashtirish va olingan natijalarni izohlash va aniqlangan hududiy tafovutlarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti – Farg‘ona vodiysining beshta yirik shahri: Namangan, Andijon, Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon. **Tadqiqot predmeti** – ushbu shaharlarda mehnat resurslari soni, hududiy tarkibi va ulardan foydalanish darajasi hamda ularning shahar qulayligiga ta’sirini baholashdan iborat.

Mavzuning o‘rganilganligi. Mehnat resurslaridan foydalanish masalasi iqtisodiyotda bir necha yo‘nalishda o‘rganilgan. Birinchi yo‘nalish mehnat taqsimoti nazariyasiga tegishli. A. Smit mehnat taqsimotini unumdorlik omili sifatida asoslagan [20]. D. Rikardo qiyosiy ustunlik tamoyilini [16], B. Olin esa omillar nisbati asosidagi hududlararo savdo modelini ishlab chiqqan [12]. Ikkinchi yo‘nalish mehnat bozori va migratsiya modellari bilan bog‘liq: V.A. Lyuis (1954) ikki sektorli rivojlanish modelida qishloq xo‘jaligidagi ortiqcha mehnatning sanoatga o‘tishini tahlil qilgan [8]. J. Xarris va M. Todaro (1970) esa shaharlarda ishsizlik va qishloqdan shaharga migratsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni modellashtirgan [5,24]. Uchinchi yo‘nalish ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirishga qaratilgan. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) doirasida R. Anker, I. Chernishev, F. Egger, F. Mehran va J. Ritter (2003)

mehnatni statistik ko‘rsatkichlar yordamida o‘lchash tizimini taklif qilgan va bandlik imkoniyatlari, ishsizlik kabi o‘lchovlarni mamlakatlararo qiyoslash mumkinligini ko‘rsatgan [3]. Murakkab ko‘rsatkichlarni yagona indeksga jamlash amaliyoti esa Inson taraqqiyoti indeksida (M. ul-Haq, A. Sen, UNDP, 1990) shakllangan [25].

O‘zbekistonda mehnat resurslari muammosi iqtisodiy-ijtimoiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot yo‘nalishlarida o‘rganilgan. A. Soliyev aholi va mehnat resurslari geografiyasini fanning ijtimoiy bloki sifatida rivojlantirgan [21]. Q.X. Abdurahmonov esa mehnat bozori, bandlik va mehnat resurslaridan foydalanishning nazariy asoslarini tizimlashtirgan [1]. Hududiy darajada R.B. Qodirov [15] Farg‘ona vodiysi viloyatlari mehnat resurslarining demografik va hududiy shakllanishi, iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi hamda ulardan samarali foydalanish yo‘llarini tadqiq qilgan. Mehnat resurslarining demografik asoslari Z.A. Temirov dissertatsiyasida yoritilgan [23].

Muhokama va natijalar. Tadqiqot obyekti bo‘lgan Farg‘ona vodiysining beshta yirik shahri aholi soni jihatidan bir-biridan sezilarli farqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yil holatiga vodiyning eng yirik shahri – Namangan 713,4 ming kishi aholiga ega bo‘lib, bu ko‘rsatkich Marg‘ilon (257,9 ming kishi) dan qariyb 2,8 baravar yuqoridir [2]. Qolaversa, Namangan va Andijon – ikkalasi ham tegishli viloyatlarning ma’muriy markazi hisoblanib, ular nafaqat vodiyning, balki respublikaning yirik shaharlari qatoriga kiradi. Bu ikki shahar jami olganda tadqiqotdagi beshta shahar aholisining qariyb 55 foizini tashkil etadi. Shuningdek, aynan bu ikki yirik shahar mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi bo ‘yicha bir-biridan farqlanadi.

1-jadval

Farg‘ona vodiysi yirik shaharlarining mehnat resurslari ko‘rsatkichlari (01.01.2025)

№	Shahar	Aholi soni, (ming kishi)	Mehnat resurslari soni (ming kishi)	Mehnat yoshidagi aholi ulushi, (%)	Bandlik darajasi, (%)	Ishsizlik darajasi, (%)
1	Namangan	713,4	360,0	55,8	67,0	5,0
2	Andijon	492,4	300,0	55,5	73,1	4,8
3	Farg‘ona	328,4	224,2	56,7	69,1	4,9
4	Qo‘qon	313,6	165,8	53,4	66,1	4,5
5	Marg‘ilon	257,9	130,7	53,1	68,3	4,4

Jadval: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi hamda hududiy statistika boshqarmalarining rasmiy ma’lumotlari asosida tuzildi [13].*

Olingan ma’lumotlarni tahlil qilinganda, shaharlarning demografik salmog‘i bilan mehnat bozori ko‘rsatkichlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud emasligini ko‘rsatadi. Namangan shahrida mehnat yoshidagi aholi ulushi 55,8 % bo‘lib, bu ko‘rsatkich Farg‘ona (56,7 %) va Andijon (55,5 %) shaharlaridan keskin farq qilmaydi. Biroq shaharning umumiy aholisi (713,4 ming kishi) kattaligi tufayli mehnat resurslarining mutlaq hajmi bo‘yicha Namangan yetakchi: 360,0 ming kishini tashkil etadi. Shuningdek, tadqiqotdagi beshta shahar mehnat resurslarining (1180,7 ming kishi) 30,5 foizi shu shaharga to‘g‘ri keladi (1-jadval). Qolaversa, Namanganning aholi umumiy sonidagi ulushi (33,9 %) mehnat

resurslaridagi ulushidan (30,5 %) yuqori bo‘lib, bu shaharda aholining mehnat salohiyatiga aylanadigan qismi nisbatan kichik ekanini bildiradi.

Mehnat resurslarining mutlaq hajmi yuqori bo‘lishiga qaramay, Namangan bandlik darajasi (67,0 %) bo‘yicha faqat Qo‘qondan (66,1 %) yuqori, qolgan uchta shahardan past o‘rinda turadi. Bandlik darajasi Namanganda band aholi 241,2 ming kishini, ya’ni mehnat resurslarining uchdan ikki qismini tashkil etadi; qolgan 118,8 ming kishi esa ishsizlar va iqtisodiy nofaol aholidir. Ishsizlik darajasining shaharlar bo‘yicha nisbatan farq qilmasligi (4,4–5,0 %) bandlikdagi tafovutni ochiq ishsizlik bilan izohlab bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Demak, Namangan shahri mehnat bozorining asosiy xususiyati ochiq ishsizlik emas, balki mehnat resurslarining muhim qismi iqtisodiy faollikka jalb etilmaganligidir. Bu holatni izohlovchi omillardan biri ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki bilan bog‘liq. Namangan shahrida mehnat yoshidagi ayollarning katta qismi rasmiy bandlik sektoridan, ya’ni davlat tashkilotlari va korxonalarda doimiy ish bilan ta’minlanganlar safidan tashqarida qolmoqda. Bunga oilaviy majburiyatlar, an’anaviy ijtimoiy-madaniy me’yorlar, ish o‘rinlarining tarmoq tuzilmasi hamda hunarmandchilik, uydan ishlash va oilaviy tadbirkorlik kabi norasmiy bandlik shakllarining keng tarqalganligi ta‘sir ko‘rsatgan.

Aholining bandlik darajasi Andijon (73,1%), Farg‘ona (69,1%) shaharlarida nisbatan yuqori. Andijon va Farg‘onada sanoat, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida ish o‘rinlari tuzilmasining nisbatan diversifikatsiyalashganligi, tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilish shakllarining rasmiylashtirilganligi hamda atrofdagi hududlardan kelib ishlovchilarning shahar mehnat bozoriga jalb etilishi bilan bog‘liq.

Ishsizlik darajasi shaharlar bo‘yicha bir-biriga yaqin bo‘lishiga (4,4–5,0 %) qaramay, uning mutlaq ko‘rsatkichlari sezilarli farq qiladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, Namangan shahrida ishsizlar soni qariyb 12,7 ming kishini tashkil etib, tadqiqotdagi beshta shahar ishsizlarining (41,0 ming kishi) 31,0 foizini, Andijonda 11,1 ming kishini (27,0 %), Farg‘onada 8,0 ming kishini (19,5 %), Qo‘qonda 5,2 ming kishini (12,6 %), Marg‘ilonda esa 4,1 ming kishini (10,0 %) tashkil etadi [2]. Namangan va Marg‘ilon o‘rtasida ishsizlik darajasidagi farq atigi 0,6 foiz bo‘lsa, ishsizlar soni 3,1 baravar farq qiladi. Ishsizlik darajasi yuqori va mehnat resurslari hajmi katta bo‘lgan shaharlarda (Namangan, Andijon) mehnat bozoriga tushadigan bosim va ish o‘rinlariga bo‘lgan ehtiyoj mutlaq sonda kattaroq bo‘ladi, bu esa ularni ish o‘rinlarini yaratish, kasbga tayyorlash va bandlikka ko‘maklashish choralari bo‘yicha ustuvor hududlarga aylantiradi.

Tadqiqot ishining asosiy maqsadi shaharlardagi mehnat yoshidagi aholi, bandlik va ishsizlik ko‘rsatkichlarini aniqlash va ularni integral indeks orqali ifodalab shaharlarning qulaylik indeksini aniqlash uchun asos yaratishga qaratilgan [10]. Bunda keltirilgan subindikatorlar foiz (%) birlikda berilgan, shaharlar muhitining qulaylik indeksini 0-100 ballik tizimda baholash uchun ko‘rsatkichlarni ball ko ‘rinishiga o‘tkazish va hisoblash uchun subindikatorlar ahamiyatiga ko‘ra integral indeksini aniqlashga yordam berishda vaznlashdan foydalaniladi. Quyidagicha formula yordamida aniqlanadi:

$$\mathbf{I = 0{,}3 \times X_1 + 0{,}4 \times X_2 + 0{,}3 \times (100 - X_3)}$$

bu yerda:

I – umumiy integral indeks;

X_1 – mehnat yoshidagi aholi ulushi (%);

X_2 – bandlik darajasi (%);

X_3 – ishsizlik darajasi (%).

Vaznlarning taqsimoti quyidagicha asoslanadi: bandlik darajasi (X_2) mehnat resurslaridan bevosita foydalanishning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatkichi bo‘lgani sababli eng yuqori vazn – 0,4 ga ega; mehnat yoshidagi aholi ulushi (X_1) va uning yo‘qotilish darajasini (ishsizlik X_3) aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar esa teng – 0,3 dan vaznga ega [6].

Aniqlangan ma‘lumotlar ya’ni mehnat yoshidagi aholi ulushi, bandlik va ishsizlik darajasi kabi subindikator ko‘rsatkichlari foiz (%) bilan ifodalangan, shaharlarni umumiy qulaylik indeksini integral qiymatini aniqlash uchun har bir subindikator hamda indikatorlar ball ko‘rsatkichiga keltirilishi kerak. Shuning uchun berilgan subindikatorlar foiz ko‘rsatkichlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri ball bilan ifodalab, vazn berish orqali ball ko‘rsatkichi aniqlandi. Bu yerda ishsizlik salbiy subindikator bo‘lgani uchun uni 100 dan ayrilib real ball qiymati aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Farg‘ona iqtisodiy rayoni yirik shaharlarining integral indeks qiymatlari va reytingi (01.01.2025)

№	Shahar	Mehnat yoshidagi aholi ulushi, w = 0,3	Bandlik darajasi, w = 0,4	100 − ishsizlik darajasi, w = 0,3	Integral indeks (I)	O‘rin
1	**Namangan**	16,74	26,80	28,50	72,04	3
2	**Andijon**	16,65	29,24	28,56	74,45	1
3	**Farg‘ona**	17,01	27,64	28,53	73,18	2
4	**Qo‘qon**	16,02	26,44	28,65	71,11	5
5	**Marg‘ilon**	15,93	27,32	28,68	71,93	4

Jadval: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi hamda hududiy statistika boshqarmalari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi [2,15].

Andijon shahrining yetakchilikni egallashi, avvalo, uning hududdagi eng yuqori bandlik darajasi (73,1%) bilan izohlanadi (1-jadval). Aynan shaharda aholi qaysi sohalarda band ekanligini ushbu ko‘rsatkichlar bilan izohlangan: shaharda 48 ta zamonaviy yirik sanoat korxonalari, 63 ta qurilish tashkilotlari va mahalliy sanoat korxonalari faoliyat yuritadi. Shuningdek, shaharda tikuvchilik va poyafzal fabrikalari ham mehnat bozorida o‘z ahamiyatiga ega. Shaharda faoliyat ko’rsatayotgan korxona tashkilotlar soni 7469 tani tashkil etib, shundan 6508 tasi tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Aholi asosan, yengil sanoat, oziq-ovqat, to’qimachilik, mebel ishlab chiqarish kabi sohalarda bandlikni tashkil etgan.

Farg‘ona shahri mehnat yoshidagi aholi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega (56,7%) – bu demografik jihatdan shaharning nisbatan “yosh” tuzilishga ega ekanini bildiradi va kelgusida mehnat bozoriga tushadigan yangi avlodning katta hajmini oldindan belgilaydi. Shahar iqtisodiyotining tuzilmasi neft-kimyo sanoati (Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi, kimyo korxonalari) atrofida shakllangan bo‘lib, bu yirik sanoat korxonalari barqaror, nisbatan yuqori malaka talab qiluvchi ish o ‘rinlarini ta’minlaydi. Shuningdek shaharda 9 994 ta korxona va tashkilotlar mavjud [2]. Biroq bandlik darajasi (69,1%) Andijondan pastroq bo‘lishi shuni ko‘rsatadiki, sanoat korxonalarining o‘zi butun mehnat yoshidagi aholini

[6] Global livability index metodologiya asosida belgilandi. https://ins-globalconsulting.com/news-post/eiu-global-liveability/

qamrab ololmaydi. Bu yerda xizmat ko‘rsatish sohasi va kichik tadbirkorlikning nisbatan sekinroq rivojlanishini cheklovchi omil sifatida keltirish mumkin.

Namangan shahri viloyatning eng yirik sanoat markazlaridan biri bo‘lib, shahar mehnat resurslarining asosiy qismini aynan sanoat va ishlab chiqarish korxonalari jalb qiladi. Aholi bandligi bitta yirik korxona yoki ishlab chiqarishga emas, ko‘p sonli kichik va o‘rta korxonalarga tayanadi. Bu mehnat bozorida ish o‘rinlarining keng tarqalganini, ishchi kuchi esa turli tarmoqlar o‘rtasida taqsimlanganini bildiradi. Shahar sanoatining yetakchi tarmoqlari yengil sanoat, ayniqsa oziq-ovqat sanoati hamda paxta-to‘qimachilik klasterlaridan iborat. Bu tarmoqlar odatda ko‘p mehnat talab qiladi va ishchi kuchini ommaviy jalb etadi. Shaharda O‘zbekiston to‘qimachilik mahsulotlarining 15 foizini yetkazib beruvchi korxonalar mavjud, bu esa mazkur tarmoqning mehnat bozoridagi o‘rni katta ekanini ko‘rsatadi. Mehnat resurslarini jalb qilishda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar ham muhim. Shaharda jami 7628 ta faoliyat ko’rsatayotgan korxona va tashkilotlar mavjud bo’lib, ularning asosiy qismi yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari hisoblanadi [2].

Marg‘ilon shahri iqtisodiyoti an’anaviy ravishda ipakchilik va to‘qimachilik sanoatiga asoslangan. Shahar mehnat resurslarining muhim qismi “Yodgorlik” ipak fabrikasi, “Turonshoyi”, A. Navoiy nomli ipak gazlamalar korxonasi va hunarmandchilik ustaxonalarida band. Bunday ixtisoslashuvning o‘ziga xos tomoni shundaki, ishlab chiqarish ko‘pincha kichik hajmli birliklarga tayanadi. Shu sababli u yirik sanoat markazlariga qaraganda barqaror rasmiy bandlikni kengroq miqyosda ta’minlashda cheklovlarga duch kelishi mumkin. Marg‘ilon shahrida jami 4236 ta faoliyat yurutuvchi korxona va tashkilotlar mavjud bo‘lib ularning asosiy qismi to‘qimachilik, tikuvchilik, ipakchilik kabi yengil sanoat tarmoqlariga tayangan [2]. Past ishsizlik va o‘rtacha bandlikning birgalikda uchrashi shuni ko‘rsatadiki, mehnat yoshidagi aholining ma’lum qismi rasmiy bandlar yoki ishsizlar qatoriga kirmaydi. Buning sabablaridan biri kichik shahar sharoitida hunarmandchilik, oilaviy ustaxonalar va savdoda o‘z-o‘zini band qilish hamda norasmiy bandlikning keng tarqalganligi bilan bog‘lash mumkin.

Qo‘qon – tarixan vodiydagi eng yirik savdo-tijorat markazlaridan biri. Shahar ishchi kuchini jalb qiluvchi sohalari: paxta tozalash, yog‘ – moy, go‘sht, mashinasozlik, ip yigiruv, poyabzal va trikotaj-tikuvchilik hisoblanadi. Shahar iqtisodiyoti asosan chakana va ulgurji savdo, kichik tadbirkorlik hamda xizmat ko‘rsatish sohalariga tayanadi. Bandlik ham, ishsizlik ham past bo‘lishi mehnat yoshidagi aholining katta qismi na bandlar, na rasmiy ishsizlar qatoriga kirishini bildiradi. Bunday aholi iqtisodiy nofaol toifaga kiradi: o‘qiyotganlar, uy xo‘jaligi bilan band bo‘lganlar, norasmiy ishlayotganlar yoki chet elda mehnat qilayotganlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Demak, sanoat korxonalari mavjudligiga qaramay, shahardagi mehnat resurslarining muhim qismi rasmiy ish o‘rinlariga jalb qilinmagan va shahar mehnat resurslaridan foydalanish darajasi sanoat salohiyatiga nisbatan past ekanligi shaharning quyi pog‘onadan o‘rin egallashiga sabab bo‘lishi mumkin.

Mehnat bozori holati va shahar qulayligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotda to‘rtta asosiy nazariy yondashuv orqali izohlanadi. Birinchidan, kompensatsion tafovutlar nazariyasiga (Rozen-Roback modeli) ko‘ra, ishchi kuchi harakatchan bo‘lgan sharoitda bandlik imkoniyatlari va shahar qulayligi bir-birini qoplaydi [17,18]. Shu asosda Andijon va Farg‘ona kabi sanoat markazlarida bandlik yuqori, an‘anaviy savdo va hunarmandchilik shaharlari bo ‘lgan Qo‘qon va Marg‘ilonda esa o‘rtacha

yoki past bo‘ladi. Ikkinchidan, agglomeratsiya iqtisodiyoti nazariyasiga muvofiq, ishchi kuchi va iqtisodiy faollikning to‘planishi bandlikni oshiradi hamda infratuzilmaga investitsiyalarni jalb etadi, ya‘ni bandlik va qulaylik o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik yuzaga kelishi mumkin [19]. Bu ikki yondashuv Andijon va Farg‘ona uchun raqobat qilish imkonini beradi. Uchinchidan, migratsion tanlash nazariyasida mehnat bozori migratsiyaning asosiy tortuvchi omillaridan biri hisoblanadi. Namangan misolida aholi sonining o‘sishi mehnat talabi o‘sishidan tezroq bo‘lishi va bu bandlik ko‘rsatkichiga bosim yaratgan [7]. To‘rtinchidan, norasmiy bandlik yondashuviga ko‘ra, rasmiy statistikada past ko‘rinadigan bandlik norasmiy sektorning kengligi bilan bog‘liq bo‘lishidir [6]. Bunday sektor ijtimoiy himoyaning pastligi bilan xarakterlanadi, shu sababli integral indeks va real shahar qulayligi o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelishi mumkin.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijasida Farg‘ona vodiysining beshta yirik shahri – Namangan, Andijon, Farg‘ona, Qo‘qon va Marg‘ilon misolida mehnat resurslaridan foydalanish darajasi integral indeks usulida baholandi va quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi.

-Tadqiqot jarayonida foiz ko‘rsatkichlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ball sifatida qabul qilish va ishsizlik darajasini invertatsiya qilish usuli qo‘llanilishi metodologik jihatdan asoslanganligi tasdiqlandi. Bu yondashuv shaharlar o‘rtasidagi haqiqiy farqlarni sun‘iy bo‘rttirmasdan, ularning real miqyosini saqlagan holda aks ettirish imkonini berdi.

-Integral indeks natijalariga ko‘ra shaharlar quyidagi tartibda joylashdi: Andijon (74,45) – yetakchi, so‘ngra Farg‘ona (73,18), Namangan (72,04), Marg‘ilon (71,93) va Qo‘qon (71,11) keyingi o‘rinda turadi. Eng yuqori va eng past ko‘rsatkich orasidagi farqning atigi 3,34 ballni tashkil etishi vodiy shaharlari o‘rtasida mehnat bozori ko‘rsatkichlari bo‘yicha nisbiy yaqinlashuv (konvergensiya) tendensiyasi mavjudligidan dalolat beradi.

-Tadqiqot shaharning aholi soni (hajmi) mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligining belgilovchi omili emasligini aniq ko‘rsatdi – vodiydagi eng yirik shahar (Namangan) integral indeks bo‘yicha o‘rta guruhda joylashgan bo‘lsa, nisbatan kichik shaharlar (Andijon, Farg‘ona) yetakchilikni saqlab qoldi. Buning o‘rniga, har bir shaharning integral indeks qiymati, birinchi navbatda, uning iqtisodiy ixtisoslashuv tipi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlandi: yirik sanoat klasterlariga ega shaharlar barqaror rasmiy bandlikni yuqori darajada ta‘minlasa, savdo-xizmat ko‘rsatish va an’anaviy hunarmandchilikka tayangan shaharlar norasmiy bandlikning yuqori ulushi sababli integral indeks bo‘yicha pastroq ko‘rsatkichlarni namoyish etdi.

Mehnat bozori ko‘rsatkichlari va shahar qulayligi o‘rtasidagi bog‘liqlikning nazariy tahlili -kompensatsion tafovutlar, agglomeratsiya iqtisodiyoti, migratsion tanlash va norasmiy bandlik nazariyalari asosida o‘rganildi. Bu esa mazkur yo ‘nalishda kelgusi tadqiqotlar uchun aniq ilmiy asos yaratadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Farg‘ona vodiysi hududiy rivojlanish siyosatini takomillashtirishda mehnat resurslaridan foydalanish darajasini kompozit (integral) ko‘rsatkichlar asosida baholash amaliyotini joriy etish zarurligini isbotladi. Ishlab chiqilgan metodologiya nafaqat vodiy shaharlari, balki O‘zbekistonning boshqa hududlarida ham mehnat bozori ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilishda qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 388 b.
2. Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari statistika boshqarmalarining shahar kesimidagi ma'lumotlari (2025-yil 1-yanvar holatiga). URL: https://andstat.uz/uz/ ; https://namstat.uz/uz/ ; https://farstat.uz/uz/ (murojaat sanasi: 30.09.2026).
3. Anker R., Chernyshev I., Egger P., Mehran F., Ritter J. Measuring decent work with statistical indicators // International Labour Review, 2003, Vol. 142, No. 2.
4. Duranton G., Puga D. Micro-foundations of urban agglomeration economies // Henderson J.V., Thisse J.-F. (Eds.). Handbook of Regional and Urban Economics. Vol. 4. – Amsterdam: Elsevier, 2004. – P. 2063–2117. URL: https://www.nber.org/papers/w9931
5. Harris J.R., Todaro M.P. Migration, unemployment and development: A two-sector analysis // American Economic Review, 1970, Vol. 60, No. 1. – P. 126–142.
6. Hart K. Informal income opportunities and urban employment in Ghana // Journal of Modern African Studies, 1973, Vol. 11, No. 1. – P. 61–89. DOI: https://doi.org/10.1017/S0022278X00008089
7. Lee E.S. A theory of migration // Demography, 1966, Vol. 3, No. 1. – P. 47–57.
8. Lewis W.A. Economic development with unlimited supplies of labour // The Manchester School, 1954, Vol. 22, No. 2.
9. Ne'matova M.A. Farg'ona iqtisodiy rayoni shaharlarining funksional tipologiyasi va klassifikatsiyasi // Ilim hám jámiyet: ilmiy-metodik jurnal. – Nukus: Ájiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, 2026, № 5. – B. 68–74.
10. Ne'matova M.A. Shaharlar qulaylik indeksini baholashda migratsiya omili // Geografiya ta'limini modernizatsiyalash sharoitida yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlash muammolari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, II tom. – Jizzax, 2026 (23–24-aprel).
11. Nematova M.A., Jumakhanov Sh.Z. Urban environmental management: ecological and economic aspects of creating green infrastructure // Экономика и социум. – Самара, 2025. – № 3(130)-2. – P. 139–149.
12. Ohlin B. Interregional and International Trade. – Cambridge, 1933.
13. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Farg'ona vodiysi shaharlari bo'yicha aholi soni, mehnat resurslari, bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari (2025-yil 1-yanvar holatiga). URL: https://stat.uz (murojaat sanasi: 28.09.2026).
14. Portes A., Castells M., Benton L.A. (Eds.). The Informal Economy: Studies in Advanced and Less Developed Countries. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1989.
15. Qodirov R.B. O'zbekiston Respublikasining Farg'ona vodiysi viloyatlari mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llari: Geografiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2021. – 234 b.
16. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. – London: John Murray, 1817.
17. Roback J. Wages, rents, and the quality of life // Journal of Political Economy, 1982, Vol. 90, No. 6. – P. 1257–1278. DOI: https://doi.org/10.1086/261120
18. Rosen S. Wage-based indexes of urban quality of life // Mieszkowski P., Straszheim M. (Eds.). Current Issues in Urban Economics. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1979.
19. Rosenthal S.S., Strange W.C. Evidence on the nature and sources of agglomeration economies // Henderson J.V., Thisse J.-F. (Eds.). Handbook of Regional and Urban Economics. Vol. 4. – Amsterdam: Elsevier, 2004. – P. 2119–2171.
20. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.
21. Soliyev A. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. – Toshkent, 2014. – 387 b.
22. Tagaev B., Korabaev N. Informal employment in Uzbekistan: Causes, consequences and policy responses (EasyChair Preprint No. 4589), 2020. URL: https://easychair.org/publications/preprint/hsW2/open
23. Temirov Z.A. Farg'ona vodiysi viloyatlarida demografik jarayonlar rivojlanishining hududiy xususiyatlari: Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022.
24. Todaro M.P. A model of labor migration and urban unemployment in less developed countries // American Economic Review, 1969, Vol. 59, No. 1.
25. UNDP. Human Development Report 1990. – New York, 1990.